

GEOGRAFIYA FANINI O‘QITISHDA ILG‘OR XORIJIY PEDAGOGIK TAJRIBALARDAN FOYDALANISH USULLARI

Alladustova Asida Quziboyevna

Dehqonobod tumani 68-maktab geografiya o‘qituvchisi

Annotatsiya: Deyarli ko‘pchilik mamlakatlarda geografiya ta‘lim tizimi davlatning ijtimoiy - siyosiy va iqtisodiy tizimi bilan bog‘liq. Tabiiy va iqtisodiy geografiyani o‘rganish asos qilib olingan MDH va Sharqiy Yevropa mamlakatlarida tabiat va xo‘jalikning rivojlanish qonuniyatlari, jamiyat va tabiat o‘rtasidagi munosabatlar, atrof-muhit muammolari geografiya ta‘limining asosini tashkil qiladi. Ushbu maqolada bu xususida batafsil to‘xtalib o‘tilgan va geografiya fanini o‘qitishda ayrim xorijiy mamlakatlar tajribasi va ulardagi ilg‘or o‘qitish usullari yoritilib berilgan.

Kalit so‘zlar: xorij geografiya ta‘limi, jahon tajribasi, rivojlangan davlatlarda geografiya ta‘limi, rivojlanayotgan davlatlarda geografiya ta‘limi, fin mamlakatlarida geografiya ta‘limi.

Rivojlangan mamlakatlarda geografiya ta‘limining mazmuni sifat jihatidan yuqori bo‘lib, o‘quvchilar ma‘lum ko‘nikmalarni shakllantirishga qaratilgan. Bu davlatlarda geografiya ta‘limi ko‘proq muammolarni, turli nazariya va qonunlarni, kategoriyalarni o‘rganishga bag‘ishlangan bo‘lib, o‘quvchilarga o‘zlashtirishda birmuncha qiyinchiliklar tug‘diradi.

Rivojlangan g‘arb mamlakatlari geografiya ta‘limida ta‘limning ruhiy jabhalari asosiy o‘rinni egallagan. O‘quvchi ruhiyati, uni bilish faoliyatini o‘rganish katta e‘tibor beriladi. Geografiya ta‘limi tadqiqotlari psixologlar ishtirokisiz deyarli amalga oshirilmaydi. Geografiya ta‘limida turli matnlar, o‘yinlar, imitatsiya keng qo‘llaniladi.

Masalan, o‘quvchi biror kompaniya prezidenti sifatida fikrlaydi, ish yuritadi, biror muammoni hal qiladi, o‘zi xulosalar chiqaradi. Umuman bunda ta‘limning asosiy maqsadi o‘quvchilarni kelgusi hayotga, ya‘ni ishbilanmonlikka tayyorlashdan iborat. Turli mamlakatlardagi geografiyadan o‘quv darsliklari va qo‘llanmalarini tahlil qilish shuni ko‘rsatdiki, ularda bitta kursni o‘qish uchun bir necha qo‘llanma chiqariladi. Ko‘pchilik hollarda ular ma‘lumotlarga boy bo‘lib, axborot xususiyatiga ega. Bunday qo‘llanmalarda matn 20-40 foizni, tasvir 20 foizni, statistika 20 foizni, savol va topshiriqlar 20 foizni tashkil qiladi. Kitobdagi tasvirlar nihoyatda sifatli. Quyi sinflar qo‘llanmalarida esa deyarli xarita yo‘q, ular o‘rnini xarita sxemalar egallagan. Matnda raqamli sonlar deyarli uchramaydi, mavjudlari ham taqqoslash

xarakteriga ega bo'lib, ular eng past, eng yuqori, eng kichik, eng baland, eng uzun kabi tarzlarda berilgan.

Mavzu yoki bo'limdan keyin qo'yiladigan savollar va topshiriqlar mavzu mazmunini aks ettirmasligi ham mumkin. Qo'yiladigan savollarning aksariyati muammoli topshiriqlar, diskussiya savollari, amaliy o'yinlar tarzida berilgan.

O'quvchilar uchun chiqarilgan geografiya darsliklarida kompyuterlar bilan ishlash uchun maxsus savollar, qiziqarli topshiriqlar, matematik statistika usullari, turli o'yinlar, testlar tarzida geografik bilimlarni egallashga keng o'rin berilgan. O'quvchilar ularni mustaqil bajarish jaraenida tadqiqotchi rolini o'ynaydilar. Demak, geografiya darsligi rivojlangan mamlakatlar geografiya ta'limi metodikasida eng yetakchi o'rinni egallaydi.

Geografiya fani bo'yicha respublikamizda xorijiy mamlakatlarning ta'lim tajribasidan kelib chiqqan holda quydagi ishlarni amalga oshirish mumkin:

- dars jarayonida faollashtirish, muammoli hamda tadqiqot xarakteriga ega bo'lgan yangi g'oyalar yaratish;
- tizim yoki faoliyat yo'nalishini o'zgartirishga qaratilgan aniq maqsadlar qo'yish;
- noan'anaviy yondashuvlar, odatiy bo'lmagan tashabbuslar orqali harakatga keltiruvchi, ta'lim jarayonining sifatini kafolatlaydigan innovatsion metodlar yaratish va amaliyotga tatbiq etish;
- o'quv topshiriqlari, nostandart testlardan iborat bo'lgan darslik va o'quv qo'llanmalarni yaratish;
- o'qituvchi innovatsiyalarning mohiyatini to'la tushunishi va o'z faoliyatiga izchil tatbiq eta olishi zarur.

Geografik o'yinlar darsning mavzusi va o'tkaziladigan muddatini o'qituvchi oldindan belgilaydi. O'yinga tayyorgarlikda o'qituvchi geografik o'yinlarning tarkibiy tuzilishini aniqlab oladi. Geografik o'yinlarning tarkibiy tuzilishiga quyidagilar kiradi:

- o'yin maqsadi va loyihasini ishlab chiqish;
- o'yinda ishtirok etadigan personajlarni aniqlash;
- o'yinda ko'zda tutilgan personajlarning vazifalarini ishlab chiqish;
- ma'lum bir personajlar bajaradigan vazifalarni bajarish metodini ishlab chiqish yoki tanlash;
- geografik o'yinda ishtirok etadigan personajlar o'rtasidagi munosabatlarni ishlab chiqish.

Geografik o'yinlarning asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat.

- geografik o'yinlar bilan dars o'tilganda o'quvchilarda rivojlantiruvchi faoliyat vujudga keladi. Bunday jarayonda ishtirok etayotgan o'quvchilar rollarini va vazifalarini erkin tanlashdi. Masalan, ekspeditsiya o'yinlarida kema darg'asi, boshqaruvchi, kuzatuvchi, kartograf, dengizchilar va boshqa rollar;
- geografik o'yinlar bilan shug'ullanish jarayonida ijodiy muhitni va munozaralari topshiriqlarni vujudga kelishi. O'quvchilar geografik o'yin davomida aniq bir rollar va vazifalarni bajarish jarayonida ijodiy ishlar bilan mashg'ul bo'lishadi, ma'lum bir muammolarni hamkorlikda yechishadi.

Xulosa: Mamlakatimizda ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan ishlar iqtisodiyot sohalari va ilm-fan sohasidagi islohotlar umumiy o'rta ta'lim maktablarida geografiya ta'limini isloh qilishga ahamiyat berilmoqda. Geografiya fani sohasida ham ta'lim jarayoniga ilg'or xalqaro tajribalarni joriy etish, o'quvchilarning fanni o'qish orqali bilim darajasining oshirishga xizmat qiladi. O'qitish amaliyotiga ta'limning innovatsion shakllarini joriy etish, o'quvchilarning bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarining shakllanishiga xizmat qiladi. Bu vazifani amalga oshirishda hozirgi zamonaviy pedagogning kasbiy mahorati alohida o'rin tutadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Akhmedova, N. (2022). DEFINITION OF THE CONCEPT OF "ALGORITHMIC COMPETENCE". Web of Scientist: International Scientific Research Journal, 3(12), 140-143.
2. Israilova, S. (2023). THE PRAGMATIC OCCURRENCE AND MENTAL PROPERTIES OF COLOR COMPONENT UNITS IN CONTEXT. Interpretation and researches, 1(5).
3. Ахмедова, Н. М. (2017). В помощь арифметике. Молодой ученый, (4-2), 14-15.
4. Машарипов, В. У., Мирвалиева, Н. Р., & Абдуллаев, У. М. (2023). Местный иммунитет и специфическая сенсibilизация к антигенам бактерий у больных тонзиллитом. Science and Education, 4(2), 392-400.
5. Усмонова, Д. Т. (2023). ИСПОЛЬЗОВАНИЕ КЕЙС-ТЕХНОЛОГИИ ПО ПРЕДМЕТУ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ ХИМИИ НА ТЕМУ «ПРОМЫШЛЕННЫЕ ОТХОДЫ». Educational Research in Universal Sciences, 2(2), 637-643.